

Milliy qadriyatlarni anglamoq Vatanni anglamoqdir.
Omonov Fazliddin Asadulla o'g'li
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti III bosqich talabasi
Annotatsiya

Vatanimiz muqaddasdir. Xalqimiz uzoq tarixiy qadriyatlarga egaki, biz ularni qancha ko'p anglar ekanmiz shunchalik vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, sadoqatimiz o'sib boraveradi.

Kalit so'zlar: Qadriyat, milliylik, vatan qadri, xalqimiz tinchiligi va totuvligi, birinchi prezidentimiz asarlaridagi qadriyat haqida so'zlar yurt haqida, ulug' bobolarmiz Amir Temur,.

Tabiiyki, milliy qadriyat tushunchasi fuqarolarimiz ongida, ayniqsa, o'quvchi yoshlar tushunchalarida yo'l-yo'lakay shakllanib, kamol topib, insonni bu sohada harakatga keltiruvchi kuch darajasiga ko'tarmaydi. Bu borada har bir insonni tug'ilib o'sgan maskani — Vatani, uning tabiati va tarixiga qiziqishlarini bilish, kamol toptirish asosiy omil hisoblanadi. Ana shunday omil o'z navbatida maktabda o'rganiladigan fan asoslarining maqsad, mazmun va vazifalari jamlanishidan kelib chikmog'i lozim. Lekin, shunga qaramasdan o'rta maktablarda o'rganiladigan O'zbekiston xalqlari tarixining o'rni, ilmiy-uslubiy imkoniyatlari ko'lami birmuncha katta. Demak, unga e'tibor ham shunga yarasha bo'lmoqda. Masalan, sobiq Ittifoq davrida «O'zbekiston SSR tarixi» deb atalmish maxsus maktab kursi yo'q edi. U bor-yo'g'i 22 soat davomida SSSR tarixi kursi tarkibida o'lkashunoslik ashyolari sifatidagina o'rganilar edi. Butungi kunga kelib istiklol sharofati bilan O'zbekiston xalqlari tarixi V— XI sinflarda o'quv yili davomida maxsus kurs sifatida o'rganiladigan bo'ldi. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asaridan «*Ekologik muammolar*», «*Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi*», «*Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligining ortishi*» mavzularidan, shuningdek, birinchi Prezidentimizning «*huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida*»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «*O'qituvchilar va o'quvchilar turmushi moddiy ishroitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*»gi qarori, o'rta maktablarda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida birinchi Prezidentimiz asarlarini o'rganish xususida Xalq ta'limi yoki Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan maxsus buyruq asosida necha soat ma'ruza-yu, necha soat seminar mashg'ulot davomida o'rganish xususida maxsus farmon e'lon

qilindi.¹SHuni alohida qayd etib o'tish lozimki, birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov asarlarida davlatimizning kelajak istiqboli ko'rsatib berilishi bilan chegaralanmasdan, balki unga erishish yo'llari ham asosli qilib ko'rsatib berilgan. Milliy qadriyat, ma'naviyat, madaniyat umumbashariy qadriyat, ma'naviyat va madaniyatning sarchashmasidir. Ana shu sarchashma ma'lum makonda, ya'ni Vatanda vujudga keladi. SHunday ekan, milliy qadriyat va madaniyat bevosita vatanparvarlik bilan uzviy alokqadorlikdadir. Turkiston xalqlari tarixi insoniyatning eng oliyjanob orzu-umidlari, ezgu niyatlarini o'zida mujassamlashtirgan ana shunday vatanparvarlik his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan desak mubolag'a bo'lmas. Tumaris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Sohibkiron Amir Temur, Bobur... eh-he yana qancha-qancha dovyurak qalblar. Biz o'zimizning pedagogik faoliyatimizda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda» ana shunday katta imkoniyatlarimizdan har doim ham maqsadga muvofik foydalanmayotirmiz.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki biz ozod va obod yurt farzantlarimiz. xalqimiz tarixi, qadriyatlarini asrab, avaylab asrash bizning eng oliy burchimiz bo'lishi kerak aziz yoshlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. "O'zbekiston." NMIU. 2016 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' halqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi T. "O'zbekiston." 2019 yil
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'y - hashamlar, oilaviy tantanalarni, ma'raka va marosimlarini o'tkazishdagi dabdababozlikka chek qo'yish to'g'risida»gi Farmoni. //| Xalq so'zi. 1988 y. 29 oktabr.
4. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy. Al Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam). 3-kitob. - T., 1997.
5. Omonov, F. (2022). ISLAMIS A RELIGION OF KNOWLEDGE. *Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya*, 1(2), 39-41.
6. Amir Temur o'g'itlari. T. 1992.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T.. "O'zbekiston". 1992.